

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

O‘ZBEK FILOLOGIYASI FAKULTETI
O‘ZBEK ADABIYOTI TARIXI KAFEDRASI
O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi fanidan

KURS ISHI

MAVZU: “Debocha”da she’riyat va shoir shaxsiyati.(Navoiy debochalari)

2014-2015-o‘quv yili

Bajardi: 203-guruh talabasi S.Burxonqulova

Ilmiyrahbar: o‘qit. N.Muhiddinova

Kurs ishi o‘zbek adabiyoti tarixi kafedrasida

Himoya qilindi va _____ga baholandi. (Bayonnoma _____ №2015)

Komissiyaraisi: prof. D.Salohiy

Komissiyaa’zolari: dots.S.Tohirov

dots.G.Xoliqulova

o‘qit.N.Muhiddinova

Samarqand – 2015

“Debocha”da she’riyat va shoir shaxsiyati.(Navoiy debochalari)

Reja:

I.KIRISH.

II.ASOSIY QISM:

1.Debocha haqida qisqacha ma’lumot.

2.Debochada she’riyat.(Navoiy debochalari misolida).

3.Alisher Navoiy debochalarida shoir shaxsiyati ifodasi.

III.XULOSA.

IV.FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

KIRISH

O'zbek adabiyotida har bir janrning o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib, ular ijodkorlar asarlarining mavzu ko'lami rang-barangligini ta'minlashda asos bo'lib xizmat qiladi. Xususan, mumtoz adabiyotimiz tarixida yaratilgan devonlarning boshlanmasi, to'g'rirog'I debochasi ham ma'lum bir muhim xarakterli ma'lumotlarni o'zida jam etgan hisoblanadi. Biz ushbu debochani ko'plab mumtoz adabiyot ijodkor namoyandalari asarlarida kuzatishimiz mumkin. Shu jumladan, Alisher Navoiyning "Badoe` ul-bidoya", "Garoyib us-sig'ar" devonlarida debochaning namunalarini ko'rishimiz mumkin.

"Badoe` ul-bidoya" (ajoyib yangiliklarning boshlanishi) deb atalgan birinchi devon 1479-1480 yillarda tuzilgan. Bu devonni tuzishga Sulton husayn Boyqaro juda ham xayrxoh bo'lgan va, Alisher Navoiyning devonga yozgan debochasida uqtirilganidek, uni tezlashtirishga buyruq ham bergan ekan:

"Tilarbiz bu parishon bo'lsa majmo'",

Ravon bo'lkim, emastur uzr masmo" ...

CHu bilding hukm, bor, ishtin rujo" et,

Ravon maqsud sori- o'q shuro" et.

Murattab qilmag'uncha, tinma bir dam,

So'z o'ldi muxtasar, v-Allohu a`lam".

(MAT, 1-tom, 19-bet).

SHunday qilib, Alisher Navoiy o'z she'riyatining birinchi devonini tartib berishga kirishadi. Bu devon o'zining tuzilishi va boshqa xususiyatlari bilan mavjud turkiy va forsiy devonlardan farq qilib turadi. Bu farqlar quyidagicha:

-devonga maxsus debocha yoziladi;

-devonga 32 harf bilan tugallangan g'azallar kiritilgan;

-har bir harf bilan tugallangan gʻazallarni ("alif", "be", "te",...)

joylashtirishda avvalida hamd, soʻng naʼt va undan soʻng esa boshqa mavzudagilari joylashtiriladi;

-gʻazallarning yakpora boʻlishiga eʼtibor beriladi;

- oshiqona gʻazallar tarkibiga mavʼiza, pand va hikmatlar kiritiladi.

"Badoeʼ ul-bidoya"da 11 navʼdagi 1041-ta sheʼrlar- gʻazal, ruboiy, muxammas, mustazod, musaddas, tarjeʼband, qitʼa, lugʻz, muammo, tuyuq, fardlar kiritilgan. Bunda "Ilk devon"dagilar ham borligini unutmaslik kerak. "Badoeʼ ul-bidoya" devoni quyidagi matlaʼli gʻazal bilan boshlanadi:

Ashraqat min aksi shams il-kaʼs anvor ul-hudo,

Yor aksin mayda koʻr deb jomdin chiqdi sado.

Devon quyidagi fard bilan yakunlangan:

Sel yoʻlida fano dashtida mujgonim emas,

Koʻz alochuqlarining dud egon oʻqlaridurur.

(MAT, 1-tom, 692-bet)

"Badoeʼ ul-bidoya " dagi sheʼrlar keyinchalik "Xazoyin ul-maoni"ga kiritilganlar.

Shu jihatdan olib qaraganda, debochaning devon tartib berilishidagi qonuniyatlardan biriga aylanishi debochaning ham devonda asosiy oʻrin tutishidan dalolat beradi.

1.Debocha haqida qisqacha maʼlumot.Sheʼrlar devoniga nasr bilan yozilib, asarning tuzilishi, adabiy janrlar hamda muallifning baʼzi nazariy qarashlarini bayon qiluvchi debocha- muqaddimalar ham adabiy-tanqidiy qarashlarini ifoda etadi.Bunday xildagi debochalarga Alisher Navoiyning “Badoeʼ ul-bidoya”,

“Navodir un-nihiya” va nihoyat “Xazoyin ul-maoniy” devonlariga yozilgan muqaddimalarini mashhur shoira Nodira va taniqli shoir Ogahiylarning devonlariga yozilgan kirish qismlarini misol sifatida keltirish mumkin.

Alisher Navoiyning yuqorida eslatilgan uch devoniga yozgan muqaddimasidan faqat ikkitasi bizgacha yetib kelgan. Bulardan biri “Badoe’ ul-bidoya” debochasi Alisher Navoiy tomonidan XV asrning 70-yillarida yozilgan bo’lsa, ikkinchisi o’sha asr 90-yillarining mahsulidir. Bir-biridan qariyb o’n-o’n besh yilga farq qiladigan bu ikki debocha Alisher Navoiy adabiy-tanqidiy qarashlari taraqqiyotini o’rganish uchun ham, shoir sifatidagi kamolotini aniqlash uchun ham va nihoyat adabiy janrlarga, badiiy tasvir masalalariga doir tushunchalarini belgilashda ham katta ahamiyatga molikdir.

Jumladan, “Badoe ul-bidoya” devoni uchun yozilgan debocha, bir tomondan, shoirning g’azal to’g’risidagi nazariy fikrlarini ifoda etsa, ikkinchi tomondan, devon tartib berish tarixi va Alisher Navoiyning bu sohadagi xizmatlaridan bahs etadi.

Xuddi ana shu debochada Alisher Navoiy g’azalining mazmun va tuzilish jihatidan yaxlit bo’lishi lozimligi, oshiqona kayfiyatlar bayoni ichida axloqqa doir fikrlarning bo’lishi maqsadga muvofiqligi to’g’risida ajoyib mulohaza yuritadi. Masalan:

“Go’yo ba’zi el ash’or tahsilidin va devon takmiliding’araz majoziy husnu jamol tavsifi va maqsudi zohiriy hatto hol ta’rifidin o’zga nima anglamaydurlar. Devon topilg’aykim ,zida ma’rifatomez bir g’azal topilmag’ay... ul jihatdin bu devonda ... biror-ikkiror nasihatoro va ma’vizatoso bayt irtik qilindi...”¹

Yana: “Soyir davovinda rasmiy g’azal uslubindinkim, shoe’durur, tajovuz qilib maxsus nav’larda so’z arusing jilvasig’a namoish va jamolig’a oroyish

¹Алишер Навоий.Хазойин ул-маоний, IV том, Тошкент, ЎзФАН, 1960, 769-бет. Yoki Алишер Навоий.Мукаммал асарлар тўплами.Т.: 1987, 21-бет

bermaydurlar. Va agar ahyonon matlae maxsus nav’ida voqe’ bo’lg’on bo’lsa hamul matla’ uslubi bila itmom xil’atin va anjom kisvatin kiydurmaydurlar, balki tugaguncha agar bir bayt mazmunin visol bahorig’a guloroylik qilsa, yana biri firoq xazonida xornamoyliq qilib durur. Bu suratdag’i munosabatdin yiroq va muloyamatdin qiron ko’rundi. Ul jihatdin say’ qilindikim, har mazmunda matla’i voqe’ bo’lsa aksar andoq bo’lg’aykim, maqta’gacha sur’atidin haysiyatidin muvofiq va ma’ni jonibidin muvofiq tushgay ”.²

Bundan tashqari, debochada o’tmish va zamondosh shoirlar ijodi haqida fikr yuritish ham ko’zga tashlanadi. Bu jihatdan “daru beshasining g’azanfari va ishq otashining samandari, javohiri ma’naviysi Xusrav Dehlaviy”, “fano mayxonasining rindu xirqa choki va balo paymonasining mastu beboki, ishqu muhabbat asrori aminlarining hamrozi- Xoja Hofiz Sheroziy” lar haqida; Mavloni Sakkokiy va malik ul- kalom Lutfiylar to’g’risida o’z asrining iste’dodli ikki tilli shoiri Suhayliy to’grisida yozilgan mulohazalar diqqatga sazovordir.

Ko’rinadiki, debochada ham adabiyot nazariyasiga, adabiy jarayonning taraqqiyotiga hissa qo’shgan zabardast namoyandalarining ijodi bo’yicha fikr yuritilgan. Bu esa mazkur debochaning qiymatini yanada oshiradi va uning faqat devoniga yozilgan muqaddimagina emas, balki, muhim nazariy va amaliy ahamiyatga molik adabiy-tanqidiy asar ekanligidan ham dalolat beradi. Mashhur shoira Nodiraning o’z devoniga va Ogahiyning “Ta’viz ul-oshiqin”iga o’zi yozgan debochalari esa shoirlar hayoti va ijodi, devon tuzish sabablari haqida muhim ma’lumotlarni qamrab olgandir. Shu jihatdan, Nodira debochasi shoiraning ruhiy holati va devonining tartib berilish sabablarini bayon qilgani bilan muhim bo’lsa, Ogahiy debochasida shoir tomonidan yozilgan va tarjima qilingan asarlar haqidagi ma’lumot qiziqarlidir. Har ikki holatda ham bu debochalar mualliflarining badiiy ijodga doir qarashlarini o’ziga xos tarzda ifoda etgani bilan ahamiyatlidir.

²Алишер Навоий.Хазойин ул-маоний, IV том, Тошкент, ЎзФАН, 1960, 769-бет. Yoki Алишер Навоий.Мукаммал асарлар тўплами.Т.: 1987, 22-бет

Yuqorida ko'rib o'tilganlar devon mualliflari tomonidan yozilgan debochalar bo'lsa, ikkinchi xil debochalar biror-bir shoir devonining tartib etgan yoki bayozlar tuzgan shaxslar tomonidan yoziladi.

Bunga shoira Nodiraning Maknuna taxallusi bilan tojikcha she'lari devoniga yozilgan debochani XIX asrning ikkinchi yarmida yashagan Husayn Buxoriyning o'n to'qqiz shoir ijodidan tashkil topgan "Marsadat tasonif" idagi har bir shoir haqidagi muqqadimani misol tarzida keltirish mumkin. Bunday debochalarda bayozni tuzuvchi shaxs shoirning tarjimai holi va ijodi haqida ma'lumot beradi. Bunday debochalarni ma'lum darajada adabiy lahza desa ham bo'ladi.

Shunday qilib, adabiyotshunoslik adabiy-tanqidiy qarashlarini ifoda etish uchun xizmat etuvchi debocha ham ko'pgina fazilatlari bilan adabiyotshunoslar diqqatini tortadi.

2. Debochada she'riyat (Navoiy debochalari misolida). Debochada muallif tomonidan kiritilgan har bir she'r uning fikrini dalillash, asoslash maqsadida bo'lib, debochadagi qo'shimcha axborotni tashishga xizmat qiladi. Navoiy o'zining "Badoe' ul-bidoya" devonining debochasida keltirgan she'rlarga e'tibor qaratamiz. Debocha shunday boshlanadi:

"Fasohati devonining g'azalsaroylari tab' maxzanidin sho'ridahol oshiqlar xirmani joniga o't solg'udek bir otashni la'l nazm silkiga torta olmag'aylar, agar so'z debochasin ul soni' javohiri hamdi bila murassa' qilmag'aylarkim, ishq ahlin olmosi lison sharafi va gavhari bayon lutfi bila soyir insonning duratul-toji qildi.

Subhonallohu huval-aliyul-mutaol,

Kim ayladi ishq bahrini molomol

Insonni chu anda soldi g'avvos misol,

Ham gavhari hol berdi, ham durri maqol.

Va balog'at bo'stonining chamanoroylari xayol gulshanidin sohibjamol ma'shuqlar gulbuni husnig'a ziynat bergudek bir otashin gul vazn guldastasig'a bog'lay olmag'aylar, agar kalom fihrastin ul qodir zavohiri shukri bila mulamma' qilmag'aylar, agar kalom fihrastin ul qodir zavohiri shukri bila mulamma' qilmag'aylarkim, husn xaylin gulbargi uzor bog'I va nargisi bemor charog'ibila koffayn xaloyiq qurratul-ayn etti..."³

Debocha boshlanishidagi ushbu she'riy misralarda Ollohga hamd aytilmoqda va ishq dengizi yaratganini e'tirof etilmoqda. Shu bilan birga, insonning bu ishq dengizida g'avvos maqomiga ega bo'lganligi aytib o'tilgan. Endi ishq dengizidan insonga ham gavhari hol, ham durri maqol tuhfa etilgan.

Navoiy Muhammad payg'ambar madhini ham she'rda ifodalaydi:

"...Bu hamdi mazkur va sanoyi masturg'a ko'ngul moyil va til qoyul bo'lub, ko'ngulga orom va tilga komyetishmagay, to risolat burjining munir axtari va nubuvvat durjining samin gavhari va "mo yantiqu an-il-havo" taronasining mushorun ilayhi va "in huva illo vahyun yuho" xazonasining mu'tamaddun alayhi va "ana afsahu" surudining mutarannimi va "ana amlahu" durudining mutakallimi na'tining tuhfasiga anga vosita va durudining hadiyasi anga vasila bo'lmag'ay.

Muhammadkim, rusul anjumdur, ul oy,

Qayu oy, balki mehri olamoroy.

Vujudining tufayli to'qquz aflok,

Bu da'vo shohidi manshuri "lavlok".

Olib yuz barqdin sur'at samandi,

Yangi oy ul samandi siynabandi.

Sitomi markabi Birjisu Nohid,

³Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 1-том Т.: 1987, 11-бет

Ne tong, agar anga har lahza yuz balo bo 'lg'ay.

*Agarchi sa'b balodur, vale budur tilagim,
Ki bu balo manga bo'lg'ay hamisha, to bo'lg'ay.”⁴*

Debochada keltirilgan Muhammad payg'ambar madhi, ishq ta'rifi she'r shaklida bo'lib, bunda Navoiy ishqning ta'rifini keltirganda, birovlar ishq mayi qo'lida muftalo bo'ladi, unga yuz balo yopishishi ajab emas, deya e'tirof etadi. O'sha yuz baloning hamisha unga bo'lishini tilaydi. Bunday tasviriy vositalar orqali muallif o'z fikrini shaxsiyatiga daxldor qilib bayon etadi.

“...Bori shuur surati ko'nglumdin ketdi va ko'ngul surati holi bir yerga yetdikim,

*Tun-kun ayog'im yalang, yoqam chok,
Mayxona yo'lida mastu bebok.
Har dam yetibon falakka huyum,
Avbosh ila barcha guftugo'yum.*

Chun tab'i jibilliy salomatdin va jibillat zoti istiqomatdin oriy ermas erdi, oshiqliq ko'chasidakim, ajib holotg'a g'oyat va xumorliq mahallasidakim, g'arib mushkilotg'a nihoyat yo'qturur; ishqda xoh habib jamoli hayratidin va xoh raqib xayoli g'ayratidin va xoh visol bahori intizoridin va xoh firoq xazoni xor-xori iztiroridin har nav' ish yuzlansa erdi; va mayda xoh mastliq ayshu tarabidin va xoh maxmurliq ranju taabidin va xoh mayfurush inoyatidin va xoh muhtasib shikoyatidin har amr voqi' bo'lsa erdi, ul holg'a loyiq va ul xayolg'a muvofiq:

*Ko'nglumda ne ma'ni o'lsa erdi paydo,
Til aylar edi nazm libosida ado.
Ul nazmg'a jonin qilibon xalq fido,
Solurlar edi gunbazi gardung'a sado.
Bu vayron tab'ni bayt etsa mastur,
Tutub shuhrat nechukkim bayti ma'mur.*

⁴Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 1-том Т.: 1987, 12-бет

*Xarobot ichra paydovu nihoniy,
Ul erdi xalqning ratbul-lisoni.*

Yo‘qkim, xarobot durdno‘shlari, balki munojot xirqapo‘shlari va demaykim, avom arozili, balki xavos afozilining tillariga joriy va ko‘ngullariga koriy tushar erdi va ul zamonning karimul-xulq ozodalari, balki azimush-sha‘n shahzodalari iltifotig‘a musharraf bo‘lur erdi. Xususan, saltanat ganjining durri samini va qanoat kunjining xoknishini, ilmu zako ahlining yagonasi va faqru fano xaylining benishonasi, itik zehni daqoyiq rishtalarining girihkushoyi va arig‘ tab‘i haqoyiq chehralarining pardaraboyi

*Tab‘i darveshu o‘zi shohnishon,
Shohi darvesh Muhammad Sulton*

abqol-lohu kanza fanoih va adoma izza g‘inoihikim, matla’e yo ortuqroq, yo tamom g‘azal tilim xomasi taqririg‘a kelsa erdi, yo xomam tili tahrir qilsa erdi, filhol ani mushkbor qalam birla kofurkirdor safhag‘a raqam qilib, oqu qaroni andin maxtut qilur erdi va yana ham anga qarobat hisobliq tezfahm shahzodalar va musohib intisobliq xushtab’ mirzodalar mutaaddid savod qilib, soyir ulusg‘a yoyilur erdi va oshiqpesha beqarorlarning ja-lisi mehnati va ma’shuqsheva gul’uzorlarning anisi suhbat bo‘lub, xavosu avom orasida ishtihori tamom va intishori molokalom topar erdi. Va lekin xotiring‘a kelmaskim, bu parishon abyotni jam’ qilmoq xotiring‘a kelmish bo‘lg‘ay va ko‘nglumga kechmaskim, bu parokanda ash‘org‘a tartib bermak ko‘nglumga kechmish bo‘lg‘ay. Agarchi, alarkim axassi ashob va aazzi ahbob erdilar, ko‘p qatla bu ish irtikobig‘a iltimos va taklif qilur erdi-lar, ammo oshufta xayolg‘a andoq kelur erdikim,

*Kulmakka o‘rganur el har so‘zki desa majnun,
Ul so‘zni jam’ qilsa, kulmakni istar afzun.
Devonaki, mast bo‘lsa doyim,
Kulmakka erur so‘zi muloyim.
O‘rgansa ulus, emas tahayyur,*

Gohi kerak elga ham tamasxur.

Va farzankim, bu soʻzlardin baʼzi zavqu hol yuzidin tadvingʻa mustahiq va aazzahu aning tartibi istidʻosido muhaqqiq boʻlgʻaylar, ammo qoyilekim,

*Har kun yana bir ishq iladur afsona,
Har tun yana bir shayʻgʻadur parvona,
Ish anga junun, manzil anga mayxona,
Devon yasamoqni ne bilur devona?!*

Va bar taqdirekim, qoyil jununi iloj qobili boʻlgʻay va avqoti jomi saloh bodasidin tulgʻay,

*Bartaraf boʻlgʻay mayu ishqu junun,
Barchagʻa qoyimmaqom oʻlgʻay funun...”⁵*

“Badoe ul-bidoya” devoni uchun yozilgan debocha, bir tomondan, shoirning gʻazal toʻgʻrisidagi nazariy fikrlarini ifoda etsa, ikkinchi tomondan, devon tartib berish tarixi va Alisher Navoiyning bu sohadagi xizmatlaridan bahs etadi:

“Ammo ashʻor tadvin qilgʻonlardin baʼzikim, baqo mulkida foniyy va baʼzikim, holo fano dayrida boqiy dururlar. Avvalgʻi zumradin bovujudi dard beshasining gʻazanfari va ishq otashgoxining samandari, maʼdani javohiri maʼnaviy Amir Xusrav Dehlaviy qaddasal-lohu taolo ruhah va fano mayxonasinnng rindi xirkachoki va balo paymonasining masti beboki, ishqu muhabbat asrori aminlarining hamrozi Xoja Hofiz Sheroziy saqol-lohu saroh. Vasoʻnggʻi firqadin quds shabistonining shamʻi anvari va uns gulistonining andalibi suxanvari, balogʻat shakkaristonining toʻtiyi shirinkalomi janobi maxdumiy mavlono Abdurahmon Jomiy maddal-lohu taolo zilola irshodihi alo maforiqit-tolibin devonlari orada boʻlgʻay. Va uygʻur iboratining fusahosidin va

⁵Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 1-том Т.: 1987, 13-бет

turk alfozining bulagʻosidin mavlono Sakkokiy va mavlono Lutfiy rahimahumol-
lohkim, birining shirin abyoti ishtihori Turkistonda begʻoyat va birining latif
gʻazaliyoti intishori Iroqu Xurosonda benihoyatdurur, ham devonlari mavjud
boʻlgʻai. Va gʻaribroq bukim, gʻaroyibi maoniy iktisobi uchun gʻarobat iqlimlarida
tabʻ sayyohini gʻurbatgʻa solgʻon forsiydisor va turkiyshior yigitlar sarxayli yori
aziz Suhayliy doma tavfiqahkim, forsiy ashʻor bahorida fayz sahobidin yoqqan
maoniy yomgʻurinnng har qatrasi rishtasigʻa shoʻxtabʻ abkori barmogʻlari uchi bila
yuz girih tugar va turkiy abyot maydonida azimat bodpoyin poʻyagʻa solsa, yuz
yilgʻi oʻlgan daqoyiq parivashlarining silsilayi zulfidin chobukluq zaman
shahsuvori sinoni noʻgi bila yuz zirih koʻtarur. Holiyo ikkalasi alfoz nazmigʻa
qoyil, balki devon takmiligʻa moyil boʻlgʻay.

Va yana dogʻi latofatshior nozimlar zaroyifi va zarofatdisor roqimlar latoyifi har
yondin istimoʻ tusharkim, koʻpragi gʻazal uslubigʻa mashgʻul va aytilgʻon
gʻazallaridin koʻpragi matbuʻ va maqbuldur. Maʻno daryosida muncha gʻavvos
orasida bir biyobongʻa xoʻy qilgʻan devonakim, shino fanidin dogʻi begona
boʻlgʻay, oʻzin ne navʻ bu daryogʻa solgʻay va solsa ham, ne gavhar topa olgʻay?

Bu qofila ahligʻa haram shavqi tamom,

Jammozalari poʻya bila abrxiom.

Men xastaki, yerdin ola olmon bir gom,

Hamrahliq alar birla xayoledur xom.

Doim el qoshida bu navʻ maqbul uzr bila mashhur va oʻz ollimda bu tavr maʻqul
bahona bila maʻzur erdim, to roʻzgor havodisi ul jahondor saltanati asosin barham
urdi va yel taharrukluk sipehr ul komgor shamʻi hayotin oʻchurdi, mulksitonliq
taxti bir shahanshoh maqdami bila tafoxur qildikim, saodat axtari tojining gavhari
boʻlmoqliq bila boshin koʻkka yetkurdi va jahonbonliq toji bir anjumsipoh farqi
bila mubohot koʻr-guzdikim, iqbol kavkabi chatrining qubbasi boʻlmogʻliq bila
farqin quyoshgʻa yetkurdi. Mulk shabistoni bir davlat mashʻali bila ravshan
boʻldikim, uchqunining ashiʻasida badri munir badr ollida Suhodek yoshundi va

adl shahristoni bir ma'dilat xurshidi bila yorudikim, ashi'asining partavida mehri olamgir mehr ollida zarradek ko'rundi. Iqlimgirekim, humoyun alqobi sharafidin farmonravoliq xutbasining minbari poyasi Mushtariy avjig'a yetti va g'anjbaxshekim, ro'zafzun janobi ismidin kishvarkushoyliq sikkasining mir'oti behbud naqshin zohir etti. Pokdinekim, shariat rivojida xurshidi ra'yati ixtisobidin Zuhra udi yuzidagi torlardin mushaf bitir mistar yuziga chekti. Adloyinekim, raiyat rioyatida insofi dehqoni madadidin Mirrixii qatandesh savobit donalarin sipehr mazra'ida ekti. Sohibqironekim, tiyg'i suyidin razm bo'stonida fath gullari ochildi, mulksitonekim, azmi asaridin bazmi anjumanida inoyat sahobidin zafar durlari sochildi.

*Shahekim, vasfi yuz ming yil tuganmas, desa yuz ming til,
Bu aytilg'oncha yuz ming bil, yana har birni yuz ming qil.
Ki yuz mingdin biri zikr o'lmag'ay zikr o'lsa yuz ming qarn,
Bu yuz ming qaridin ham bo'lsa har bir lahza yuz ming yil.
Oliy nasabi bila quvonib xonlar,
Tun-kun eshigini yastanib xoqonlar,
Oy-yil qadamida bosh qo'yub qoonlar,
Jonlar bila qullug'in qilib sultonlar.
Gardun qadi hilmi yukidin xam bo'ldi,
Oy lam'asi ra'yi nuridin kam bo'ldi,
Sultonlig'anga garchi musallam bo'ldi,
Bu turfaki, darveshsifat ham bo'ldi.
Bu yanglig'yozdi alqobini davron,
Ki sulton ibni sulton ibni sulton —*

Abulg'oziy Sulton Husayn Bahodirxon xalladal-lohu taolo mulkahu va saltanahu va afoza alal-olamina birrahu va ihsonah

*Ro'ziy anga barcha kom bo'lsun, yo rab,
Iqboli mayi mudom bo'lsun, yo rab,*

*Ham ishrati bardavom bo'lsun, yo rab,
Ham davlati mustadom bo'lsun, yo rab.*

Omin,

yo

rabbul-olamin.

Hosilkim, chun ul saltanat sipehrining quyoshi anjum shoxi to'rtunchi sipehr anjumanini musaxxar qilg'ondek, to'rtunchi iqlim taxtida mutamakkin bo'ldi. Rub'i maskun xaloyiqi farog'at maskanida mura'ffahul-hol va rifohiyat ma'manida forig'ul-bol bo'lub,

*Nechukkim qamar tegrasida nujum
Ulus ul quyosh sori:qildi hujum.
Jahon mulkatining ulug' beklari,
Yana poyada o'rtarog'deklari.
Ulug' neyu, o'rta nekim, xosu om
Rafi' ostonig'a aylab xirom.
Yetib dargahig'a, topib bor ham,
Budur turfaroqkim, meni zor ham.
Falak javfida bir ovuch xokdek,
Karonsiz tengiz ichra xoshokdek.
Janobig'akim, arsasidur sipehr,
O'shul arsa kirpichlari mohu mehr.
Uzumni solib zarradek beqaror,
Itib ul quyosh nurida zarravor.
Kuyosh arsasini chun matof ayladim,
Ani zarra yanglig' tazof ayladim.*

Chun yuzum bu sipehroso dargoh tufrog'idin bahramand va boshim bu falakfarso borgoh itlari ayog'idin arjumand bo'ldi, agarchi ota-otadin yetti pushtg'a degincha bu rafi' dudmonning boyiri bandasi va bu vasi' ostonning mavrusi tug'masi, ya'ni bu xonazodaning xonavodasi va bu xonavodaning xonazodasi erdi:

*Otam bu ostonning xokbezi,
Onam ham bu saro bo'ston kanizi.
Manga, gar xud bo'lay bulbul, vagar zog',
Kim ushbu dargah o'lg'ay gulshanu bog'.
Vale umre bu gulshandin havodis
Qilib jonimga hijron ranji hodis.*

Va lekin qobiliyat qillatidin va haqorat kasratidin hargiz salotini oliymiqdor mulozamati muddaosi xotiring'a xutur qilmaydurur erdi va xavoqini sipehriqtidor xususiyati tamannosi botinimda zuhur etmaydurur erdi. Ammo ul hazratning kimyo xosiyatliq iltifotlaridin va iksir manfaatliq murootlaridin mulozamatda beixtiyor va ubudiyatda devonavor erdim va xurshidi ra'yatidin nihoyatsiz tarbiyatlar quyosh tog'din anvo'i javohir paydo qilg'ondek, ko'nglum konin daqoyiq gavharlari birla orosta qilib va sahobi kafidin g'oyatsiz taqviyatlar bo'lub, tufrog'din turluk rayohin huvaydo qilg'ondek, xotirim bo'stonin latoyif gullari birla perosta aylar erdi. Va durarbor tiliga majolisda ba'zi abyotim mazkur va gavharnisor ilgiga mahofilda ba'zi g'azaliyotim mastur bo'lur erdi. Va gohi iboratim qusurin tag'yir bermak bila aybdin mubarro, va gohi maoniyimdin futurin isloh qilmoq bila nuqsondin muarro qilur erdi. Ba'zi baytimdin biror nomunosib lafzni chiqorib, bir dasta subha ichra bir durri shahvor tortqondek biror lafz kiyurur erdi va ba'zi g'azalimdin biror nohanjor baytqa xat urub, bir buzug' dasht ichra bir qasri zarnigor yasag'ondek, biror baytg'a daxl berur erdi. Bu oshufta abyotimda ul lafz va bu parishon g'azaliyotimda ul bayt

*Xoro orasinda erdi gavhar yanglig',
Yo kullar ichinda erdi axgar yanglig',
Yoxud tikan ichra guli ahmar yanglig',
Balkim tan aro ruhi musavvar yanglig'.*

Chun bu baytlar ayvoni ul islohlar naqshu nigoridin rashk» nigorxonayi Chin va bu g'azallar bo'stoni ul ihtimomlar bahoridin g'ayrati xuldi barin bo'la boshladi;

sohibnazarlar ko‘ziga mahbubroq va ahli dillar ko‘ngliga marg‘ubroq bo‘lub,
hurmati g‘oyatdin va shuhrati nihoyatdin o‘tti, val-haq

*Bo‘ldi, chu shoh surdi isloh etarga xoma,
Har bayti — shohbayte, har noma — shohnoma.*

Men bu vayronani ul javohir naqdi maxzan qilg‘an hayratdin mutafakkir va bu
koshonani ul mashoil nuri ravshan etgan fikratdin mutahayyir:

*Ravshan qilib ul charog‘i tobanda meni,
Mas‘ud etib ul axtari farxanda meni,
Har nuktasi yuz qatla qilib banda meni.
Har shafqati bandaliqda sharmanda meni.*

Mundoq holatda:

*Nido yetkurdi nogah munhiyi roz,
Ki:— «Ey afsungaru afsonapardoz,
Balog‘at kishvarining nuktadoni,
Fasohat mulkining sohibqironi,
Ravon xomang uchun aylab murattab,
Atorud ko‘z qarosidin murakkab,
Maoniy xaylikim, mar‘iy emas ul,
Hamono qildi xomang javfidin yo‘l.
Ulus tab‘ing sahobi yomg‘uridin
Bo‘lub serob, bal nazming duridin
So‘zung bir avj uza chekti alamni,
Ki surdung arsh lavhig‘a qalamni.
Agarchi axtaredur har so‘zung pok,
Ki evrulur aning boshig‘a aflok.
Valekin bu qadar bikri parison
Banotun-na‘shdek bo‘lmish parishon.*

*Tilarbiz, bu parishon bo'lsa majmu',
Ravon bo'lkim, emastur uzr masmu'.
Chu oliy himmatimiz bo'ldi moyil,
Sen o'ldung muncha nodir so'zga qoyil.
Bu nav' istaydur emdi royi oliy,
Ki qilg'ay fikrating devon xayoli.
Jahonda kinga bo'lsa muncha farzand,
Ki bo'lg'ay barcha ruhafzovu dilband.
Ravomudur bizing farrux zamonda
Alarni darbadar qilmoq jahonda?!
Barin yig' emdi andog'kim atolar,
Suruk tiflin nechukkim kadxudolar.
Ki bor ul xayli sargardoni soda
Sanga farzand, bizga xonazoda.
Alar bechoravu biz chorarasbiz,
Sen ar nomehribonsen, biz emasbiz.
Chu bilding hukm, bor ishtin ruju' et,
Ravon maqsud sori-o'q shuru' et.
Murattab qilmag'uncha tinma bir dam,
So'z o'ldi muxtasar, vallohu a'lam'''⁶.*

Ko'rinib turganidek, Navoiy o'z debochalarida she'riyatning qit'a, g'azal kabi janrlaridan unumli foydalangan. Bundan tashqari, ruboiy janri ham debochaning badiiyatini ochib berishga xizmat qilgan.

3. Alisher Navoiy debochalarida shoir shaxsiyati ifodasi. Debochada she'riyatning ifoda etilishi bilan bir qatorada, shoir shaxsiyati ham aks ettiriladi. Xususan, Alisher Navoiy debochalarida g'azalining mazmun va tuzilish jihatidan yaxlit bo'lishi lozimligi, oshiqona kayfiyatlar bayoni ichida axloqqa doir

⁶Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 1-том Т.: 1987, 14-15-16-бетлар

fikrlarning bo'lishi maqsadga muvofiqligi to'g'risida ajoyib mulohaza yuritadi. Ana shu jihatlarda muallifning shaxsiy munosabatlari, fikr-mulohazalari namoyon bo'ladi. Bu esa bevosita debochada shoir shaxsiyati ishtirok etganligini, unga tegishli faktlarning tilga olinganligidan dalolat beradi. Masalan:

“...Buvojibul-ittibo’ amrvuqu’idin vabuyasihus-
sukuthukmsuduridindudboshimg’ aoshtivao’tdumog’imgatutoshti,
xomamtililolvatilimxomasishikastamaqolbo’ldi. Neshurg’
qilurg’aquvvatvaneuzrayturg’aqudrat; g’oyatiiztirob,
balkiiztirordino’zvoqi’amg’asodiqvao’zholimg’amuvofiqtilibubaytg’amutakalli
mvako’nglumbunavog’amutarannimerdikim:

*Navoiyg’amg’aqoldio’zkalomijonfizosidin,
Aningdekkim, yetar bulbulg’a mehnat o’z navosidin.*

Ki nogah xirad piri nahib urdi va aql xabiri yuzumga yugurdi:

*Ki:—«Falon, bu ne tiyrajonliqdur?
Ne balo ajzu notavonliqdur?
Ranj ko’rmay kishi toparmu farog’?!
Ko’ngli o’rtanmayin yonarmu charog’?!
Tuxm yerga kirib chechak bo’ldi,
Qurt jondin kechib ipak bo’ldi.
Lola tuxmicha g’ayrating yo’qmu?!
Pilla qurticha himmating yo’qmu?!
Aylasang ham shuru’u jon cheksang,
Sa’yda yuz piyola qon cheksang.
Senmu bergungdurur anga tazyin?
Balki shah sa’yi etgusi tadvin».
Chun xiraddin yetishti buyla navid,
Manga bo’ldi o’zumdin o’zga umid.
Tengri tavfiqin iddio aylab,*

*Shah janobig‘a iltijo aylab,
Hukm mazmunig‘a qalam chektim,
Safha tartibig‘a raqam chektim.
Arzimas gar yig‘arg‘a ul xoshok,
Chun bu durlar nihondur anda, ne bok?
Garchi bas tiyraro‘dur ul zulumot,
G‘am emas, chun bor anda obi hayot.*

Bu devon, inshoolloh, bu zobita bilakim mazkur bo‘lur, murattab bo‘lg‘ay va bu robita bilakim mastur bo‘lur, ihyo topqay. Necha nav’ ishkim, munda mar’iy bo‘lubturur, o‘zga davovinda ko‘rulmaydurur. Avval budurkim, har kishikim devon tartib qilibdurur, o‘ttiz ikki harfdinki, xaloyiq iboratida voqi’durur va ulus kitobatida shoyi’, to‘rt harfg‘a taarruz qilmaydururlar. Chun so‘z arusi nazm haririning matbu’ kisvatin va mavzun xil’atin kiyib, jilva og‘oz qilsa, huqqayi yoquti dog‘i o‘ttuz ikkita gavhardin qachonkim to‘rtig‘a nuqson voqi’ bo‘lsa, muqarrardurkim, jamolig‘a andin qusur va kalomig‘a andin futur voqi’ bo‘lg‘usidurur.

*Sho‘xeki, o‘kush husnu jamol o‘lg‘ay anga,
Bir husn yana husni maqol o‘lg‘ay anga.
La‘li aro durlarida gar bo‘lsa qusur,
So‘z derda kerakkim, infiol o‘lg‘ay anga,*

Bu jihatdin ul to‘rt harf gavharlarin dog‘i o‘zga huruf javohiri silkiga tortib, g‘azaliyotni o‘ttuz ikki harf tartibi bila murattab qilindi.

Yana bukim, har harf g‘azaliyotining avval bitigan g‘azal bila o‘zga g‘azallar orasida uslub xaysiyatidin tafovut rioyat qilmaydururlar. Muqarrardurkim, har amrda bir lahza haq subhonahu va taolo hamdidin yo rasul alayhis-salom na’tidin, yo bu ikki ishga dalolat qilurdek bir amrdin g‘ofil bo‘lmamog‘liq avlodurur. Agar

lahzaye bu saodat muyassar bo'lmasa, har mutaayyin amr iftigohida xud ne nav' tag'oful va takosul ravo ko'rulgay:

*Garchi erur tengri taolo so'zi
Boshtin-ayog'ig'a kalomi qadim.
Ko'rki, erur avvali har suraning
«Bismillohir-rahmonir-rahim».
Bu ishga hadis ham erur shohidi hol,
Kim sobit erurki kulli amrin zi bol.
Ham buyla ayon qildi xudoyi mutaol,
Ham ulcha rasul dedi, bordur anga dol.*

Bu nav' xayole xotirg'a kelgan uchun har harf g'azaliyotining avvalg'i g'azalini yo tangri taolo hamdi bila muvashshah, yo rasul alayhis-salom na'ti bila mufattah, yo bir mav'iza bilakim, bu ikki ishdin biriga dol bo'lg'ay, muvazzah qilindi.

Yana bir bukim, go'yiyo ba'zi el ash'or tahsilidin va devon takmilidin g'araz majoziy husnu jamol tavsifi va maqsud zohiriy xattu xol ta'rifidin o'zga nima anglamaydururlar. Devon topilg'aykim, anda ma'rifatomiz bir g'azal topilmag'ay va g'azal bo'lg'aykim, anda mav'izatangiz bir bayt bo'lmag'ay. Mundoq devon bitilsa, xud asru behuda zahmax va zoyi' mashaqqat tortilg'on bo'lgay. Ul jihatdin bu devonda hamdu na't va mav'izadin boshqa har sho'rangiz g'azaldinkim, istimo'i mahvashlarg'a mujibi sarkashlik va g'amkashlarg'a boisi mushavvashliq bo'lg'ay, biror-ikkiror nasihatoro va mav'izatoso bayt irtikob qilindikim, alarning lam'ayi ruxsori iffat burqa'idin ko'p tashqari lomi' bo'lmag'ay, to bularning vujudi xirmani ul barq ixroqidin bilqul zoyi' bo'lmag'ay, yo'qkim, bu g'azallar g'azolalari jilvagarlik soz, balki pardadarlik og'oz qilsalar, bu baytlarning nasihatsoz vo'izlari va mav'izapardoz nosihlari moni' bo'lg'aylar.

*Ya'ni ul gulchehralar noz etsalar,
Aqlu din yag'mosin og'oz etsalar.*

*Ishvagarlik qilsalar g‘ammoz o‘lub,
Pardadarlik etsalar tannoz o‘lub.
Lam‘ayi orazlaridin har nafas,
Qilsalar olamni kuydurmak havas.
Bu nasoyih ahli hikmatlar bila,
Yuz tuman pandu nasihatlar bila,
Moni‘ o‘lg‘aylar alarg‘a har zamon,
To zamon ul fitnadin topqay omon.*

Yana bukim, soyir davovinda rasmiy g‘azal uslubidinkim, shoyi‘durur, tajovuz qilib, maxsus nav‘larda so‘z arusing jilvasig‘a namoyish va jamolig‘a oroyish bermaydururlar. Ba agar ahyonan matla‘e maxsus nav‘da voqi‘ bo‘lg‘on bo‘lsa, hamul matla‘ uslubi bila itmom xil‘atin va anjom kisvatin kiydurmaydururlar, balki tugang‘uncha agar bir bayt mazmuni visol bahorida guloroyliq qilsa, yana biri firoq xazonida xornamoyliq qilibdurur. Bu surat dog‘i munosabatdin yiroq va muloyamatdin qiroq ko‘rundi. Ul jihatdin sa‘y qilindikim, har mazmunda matla‘e voqi‘ bo‘lsa, aksar andog‘ bo‘lg‘aykim, maqta‘g‘acha surat xaysiyatidin muvofiq va ma‘ni jonibidin mutobiq tushkay.

*Har yerda bahor o‘lsa, chaman bo‘lsa kerak,
Har yerda chaman, gulu suman bo‘lsa kerak.
Har qayda xazon bo‘lsa, tikan bo‘lsa kerak,
Har qayda tikan, ranju mihan bo‘lsa kerak.
Zohid xush emasturur xarobot ichra,
Fosiq ne tilar ahli munojot ichra?
G‘urbatki, qotiq tutubtur oni bori xalq,
Budurki, tushar kishi suruk yot ichra.*

Yana masnaviy bila qasoyiddin boshqakim, inshoolloh, alar dog‘i har qaysi boshqa mujallad bo‘lg‘ay, har nav‘ she‘rdin, masalan, ruhafzo muxammaslar, barcha xamsaziynat; va ravonoso musaddaslar, barcha sittaziynat; va mufid ruboiyot,

barcha latofatomiz; va nofi' muqattaot, barcha manfaatangiz; va dilpazir mustazodlar, barchaning vasfi zoyidul-had; va benazir fardlar, barcha lutfu ravonliqda mufrad; va nomiy muammolar, barchasi ot yoshurmoqda sotir; va kiromiy lug'zlar, barchaning mabtunlug'i zohir; va musalsal tarji'lar, barcha marg'ub; va mu'tadil tuyug'lar, barcha turkiy uslub bu abyot zaylida muxayyal va bu ash'or xaylida muzayyal bo'ldi. Va g'araz bu fihrastdinkim, bu zebo uzorig'a yozildi, va maqsad bu debochadankim, bu ra'no ruxsorig'a bitildi, ul erdikim, chun salotindin qay birikim binoye qo'yubdururlar mann' va ayvone chekibtururlar rafi', ul bino ravoqida va ul ayvon toqida o'z ismlarin tahrir va o'z alqoblarin tanqir qilibdururlarkim, to ul ayvon toqi bo'lg'ay, ul ism anda boqiy bo'lg'ay:

*Kim qilsa imorateki, maqdur o'lg'ay,
Chun ismi kitobasida mastur o'lg'ay
Ne choqqacha ul binoki ma'mur o'lg'ay,
Ul ism ulus tiliga mazkur o'lg'ay.*

Chun bu qubbayi sipehrtimsol qasredurur muallo, ul hazratning tab'i latifining me'mori bino qilg'on va bu ravzayi firdavsmisol bog'edurur jahonoro, ul janobning xayoli sharifining bog'boni tarh solg'on va bu qasr asosining toqida ul ro'zafzun janob yozilsa, ne g'arib va bu bog' kiriyosining ravoqida ul humoyun alqob bitilsa, ne ajib:

*G'araz ul erdikim, bu qasri oliy,
Qi hargiz bo'lmag'ay, yo rab, zavoli,
Binoyedurki, shah bunyod qilmish,
Zamona qasridek obod qilmish.
Ani shah ixtimomi qildi ma'mur,
Meni me'mor farz et, balki muzdur,
Agar muzdur, agar me'mori mohir,
Ishicha ming chu muzdi bo'ldi zohir.
Tugangach shoh qasri zarnigori,*

Alarg'a qasr aro ne daxl bori?
Xalil ar Ka'bani obod qildi,
Yaqin bormuki, ne ustod qildi?!
Hamul sadkim, Sikandar qildi ma'mur,
Kim ayturkim, anga kim erdi muzdur?
Imorat sa'yida kim bo'lsa zarposh,
Bino oning oti birla bo'lur fosh.
Binog'a garchi har kim bo'lsa boniy,
Atarlar boniy ismi birla oni.
Va lekin xalq aro bu bo'ldi dastur,
Ki bo'lg'ay onda boniy ismi mastur.
Shah otin, chunki bu ma'nini bildim,
Bu qasr ayvoni uzra sabt qildim.
Ki to bo'lg'ay bu qasri charxkirdor,
Bu ism ayvonida bo'lg'ay namudor.
Alo, to charx qasri soyir o'lg'ay,
Nujum ayvoni uzra doyr o'lg'ay,
Bu shoh ayvoni umrining binosi
Matin o'lsun, nechukkim charx asosi.
Qadar devonidin har lahza komin
*Qazo dilxohidek yetkursun, omin!"*⁷

Ko'rinib turganidek, Navoiy ushbu yuqorida keltirilgan fikrlarida Husayn Boyqaroning faoliyati jarayonini izohlab o'tishga, uning obodonlashtirish sohasidagi qilgan ishlarini bayon etishga harakat qiladi. Shu bilan birga, bog'i jahonoroni firdavsmonand bog' deb atab, uning barpo bo'lishida me'morning Husayn Boyqaro ko'nglidagidek mehnat qilganini ham alohida uqtirib o'tadi. Jumla davomida Navoiy qasr yaratilishidan ilhom olgan holda qit'a keltiradi. Qit'ada

⁷Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 1-том. Т.: 1987, 16-17-бетлар

qasrning maqtovini berar ekan, uni bunyod etgan Husayn Boyqaroning ishini Ka'bani obod etishi bilan tenglashtiradi.

Devonning yozilish tarfini quyidagicha bayon etadi:

“...Yana daqoyiqshior muxaqqiqlar xizmatida va haqoyiqdisor mudaqqiqlar hazratida arzim uldururkim, bu parishon abyotkim, sharh qilg‘ondek tartib topti, bu zobita qaydig‘a kirmasdin va bu robita silkiga tortilmasdin burun, bu jihatdinkim, agar ba‘zisi vasati sinda aytilg‘on bo‘lsa, ba‘zi sig‘ari sinda deyilib erdi va ba‘zi fikriy bo‘lsa, ba‘zi badiha va ba‘zi sog‘ erkanda bo‘lsa, ba‘zi usruklikda, va ba‘zi hushmandlikda bo‘lsa, ba‘zi devonaliqda voqi’ bo‘lub erdi; oralarida, shoyadki, fohish tafovut bo‘lg‘ay deb jam’ qilmog‘ida dalirlik qilinmas erdi, ammo xaloyiq arosida ming bayt-ikki ming bayt ortug‘roq-o‘ksukrakkim o‘zlari jam’ qilib erdilar, bag‘oyat mashhur bo‘lub erdi. Bularning tartibig‘a hukm bo‘lg‘ondin so‘ngra ba‘zi abyotekim, xomroq va ba‘zi g‘azaliyotekim, notamomroq erdi, kitobat shuyu‘idin va shuhrat vuqu‘idin o‘zgalar orasidin xorij qilmoqliq mutaazzir, balki muhol ko‘rindi, ul jihatdin har qaysi o‘z yerida nazm silkiga kirdi.

Gul bo‘lsa, tikan dog‘i bo‘lur bo‘stonda,

Dur bo‘lsa, sadaf dog‘i bo‘lur ummonda.

Sukr o‘lsa, xummor ham bo‘lur davronda,

Ayb aylama, soda bayt bu devonda.

Yuz gul arosida bir tikan bo‘lsa, ne tong?!

Yuz yaxshi ichinda bir yoman bo‘lsa, ne tong?!

Ming sog‘ar ichilsa, uylakim obi hayot,

Birining tahida durdi dan bo‘lsa, ne tong?!

So‘z rishtasi uzoldi va maqsud gavhari orada qoldi. Bu mazkur bo‘lg‘on mahodimg‘a hosilki, iltimosim budururkim, ya‘ni:

Bu nomag‘akim, xomam etibtur tahrir,

Aylarda nazzora ahli ma‘ni bir-bir,

Taqsir topilsa, aylasunlar tag‘yir,

*Tag'yir berurda qilmasunlar taqsir.
Ayb istaguchiki, so'zidur barcha xilof,
Feruzani xarmuhra debon sursa gazof.
Chun javharini zohir etar, ayla muof,
Mundoq javhariyg'a tengri bergay insof.
Yo rab, chekibon ko'p raqam jurmu gunoh
Nomamni qaro qildimu umrumni taboh.
Rahmat suyidin yumasang ul nomani, oh,
Mahshar kuni netkamen meni nomasiyoh?!
Kom ayla Navoiyg'a fanoni, yo rab!
Chun bo'ldi sening yo'lingda foniy, yo rab!
Lutf ayla baqoyi jovidoniy, yo rab!
Ul dam sen bil, ne qilsang oni, yo rab!"⁸*

Debochada Alisher Navoiyning adabiy-tanqidiy qarashlari taraqqiyotini o'rganish ham mumkin. O'z zamonasining adabiy jarayoni, she'riyatning roli va ijodkorlarning bu sohada qo'shayotgan salmoqli hissasi haqidagi muallif munosabatlari ifodasini ham debochada kuzatishimiz mumkin. Bundan tashqari, Navoiyning shoir sifatidagi kamolotini aniqlash, ijodi ravnaqini kuzatish uchun ham debocha nihoyatda muhim ahamiyatga molikdir. Va nihoyat, muallifning, xususan, Navoiyning adabiy janrlarga, badiiy tasvir masalalariga doir tushunchalarini belgilashda, tadqiq etishda ham katta ahamiyat kasb etadi.

XULOSA

Devon tuzishda asosiy qism hisoblangan, devonning boshlanmasi hisoblanmish debocha yaratilgan devon haqida asosiy ma'lumotni beruvchi manba hisoblanadi. Shu jumladan, debochada shoirning o'z zamonasi ijtimoiy hayotidagi tutgan o'rnining bayon etilishi, devonning yozilish sabablari, tarixi, uni yaratishga asos bo'lgan manbalar va asos solgan yoki sababchi bo'lgan shaxslar haqidagi

⁸Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 1-том Т.: 1987, 17-18-бетлар

tushuncha va ma'lumotlarning berilishi o'quvchi ommasi uchun olinajak muhim ma'lumotlar hisoblanadi.

Debochada ham adabiyot nazariyasiga, adabiy jarayonning taraqqiyotiga hissa qo'shgan zabardast namoyandalarining ijodi bo'yicha fikr yuritilgan. Bu esa mazkur debochaning qiymatini yanada oshiradi va uning faqat devoniga yozilgan muqaddimagina emas, balki, muhim nazariy va amaliy ahamiyatga molik adabiy-tanqidiy asar ekanligidan ham dalolat beradi. Mashhur shoira Nodiraning o'z devoniga va Ogahiyning "Ta'viz ul-oshiqin"iga o'zi yozgan debochalari esa shoirlar hayoti va ijodi, devon tuzish sabablari haqida muhim ma'lumotlarni qamrab olgandir. Shu jihatdan, Nodira debochasi shoiraning ruhiy holati va devonining tartib berilish sabablarini bayon qilgani bilan muhim bo'lsa, Ogahiy debochasida shoir tomonidan yozilgan va tarjima qilingan asarlar haqidagi ma'lumot qiziqarlidir. Har ikki holatda ham bu debochalar mualliflarining badiiy ijodga doir qarashlarini o'ziga xos tarzda ifoda etgani bilan ahamiyatlidir.

Shunday qilib, adabiyotshunoslik adabiy-tanqidiy qarashlarini ifoda etish uchun xizmat etuvchi debocha ham ko'pgina fazilatlari bilan adabiyotshunoslar diqqatini tortadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Алишер Навоий.Хазойин ул-маоний.—IVтом, Тошкент,ЎзФАН,1960. 656 б.
2. Алишер Навоий.Мукаммал асарлар тўплами.—I том,Тошкент, 1987. 644 б.
3. Валихўжаев Б.-Ўзбек адабиётшунослиги тарихи.— Тошкент.—“Ўзбекистон”, 1993. 210 б.
4. Султон И.Навоийнинг қалб дафтари. —Тошкент, 1969. 147 б.
5. РустамовА. Навоийнинг бадиий маҳорати. —Тошкент, 1979; 204 б.
6. ҲайитметовА.Навоий лирикаси. —Тошкент, 1961. 234 б.
7. Исҳоқов Ё.Навоий поетикаси. —Тошкент, 1984. 218 б.
8. ҲакимовМ.Навоий асарлари қўлёзмалари тавсифи. —Тошкент, 1983. 224 б.
- 9.Ҳасанов Б.Алишер Навоийнинг “Сабъати абхур” луғати. — Тошкент,Фан, 1981.
- 10.HojiahmedovA. Navoiyaruzinafosati. — Т.:Fan, 2006.
11. YusupovaD. JomiyvaNavoiy: aruzgadoirrisolalarningqiyosiytahlili / O‘zbekfilologiyasiningdolzarbmualammolari. — Тошкент,MUMTOZSO‘Z, 2010.
12. Ўзбек адабиёти тарихи.—Беш жилдлик. 2-жилд (XV асрнинг иккинчи ярми). — Тошкент,Фан, 1977.437 б.
- 13.Назқулов I. Navoiyga qaytish.— Toshkent, “Fan”, 2007.224 b.
- 14.Ҳаққулов И. Занжирбанд шер қошида.—Тошкент, 1989. 223 б.
- 15.Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch.—Toshkent, “Ma’naviyat”,2008. 176 b.